Turizm sohasi, uning nazariy asoslari varivojlanishi iqtisodiy adabiyotlarda T.Tashmuradov, A.Saidov, I.S.Tuxliev, S.Safarov, Kim Ok Kyung, N.M.Abdusalomovna, S.Agzamovlarlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Turizm turlari, turistik joylashtirish maskanlari, turizm xizmatlari va mahsulotlari tahlil qilingan. Turizmni innovatsion rivojlanishini statistik yondashuv asosida ham tahlil qilishi mumkin. Statistikaning o'rganish obyekti insoniyat hayotida ro'y beradigan barcha ommaviy voqea va hodisalardir. Turizm sohasi ham hozirda ommaviy voqea hodisalar qatoriga kiradi, demak turizm sohasi statistikaga o'rganish obyekti bo'lishi mumkin. Turizm statistikasi turizm ko'rsatkichlarini hisoblashni o'rganib, ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni va ularning o'zgarish dinamikasini tahlil qiladi.

TADQIQOTDA QO'LLANILGAN METODOLOGIYA

"Iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash uslubiyoti" bo'yicha metodologiya quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo'ladi:

- **Ma'lumot to'plash:** Turizm sohasiga ta'sir qiluvchi omillar, jumladan, turistlar soni, turizm daromadlari, mehmonxona xizmatlaridan foydalanish statistikasi kabi ma'lumotlarni to'plash.
- **Ma'lumotlarni tahlil qilish:** To'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turizm sohasining iqtisodiyotga ta'sirini baholash. Bu bosqichda turli statistik usullar va modellar, jumladan, regresyon tahlili, korelyatsion tahlil va boshqalar qo'llaniladi.
- **Dinamikani tahlil qilish:** Turizm sohasining vaqt bo'yicha o'sish dinamikasini tahlil qilish. Bu, turizm sohasining iqtisodiyotdagi ulushi qanday o'zgarayotganini ko'rsatib beradi.
- **Prognostik modellar yaratish:** Kelajakdagi turizm faoliyatini baholash uchun prognostik modellar yaratish. Bu modellar turizm sohasining rivojlanish tendentsiyalarini oldindan ko'rish va moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.
- **Siyoq yondashuvlarini ishlab chiqish:** Olingan natijalar asosida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va strategiyalar tuzish. Bu strategiyalar turizmni qo'llab-quvvatlash uchun davlat siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.
- **Hisobot va taqdimotlar tayyorlash:** Barcha bosqichlarda olingan natijalar va tahlillarni jamlab, aniq va tushunarli hisobotlar tayyorlash. Bu hisobotlar qaror qabul qiluvchilar va manfaatdor tomonlar uchun muhim ma'lumot manbai bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi, chunki u ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy daromadlarni oshirishga hissa qo'shadi. Turizmning milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi rolini aniqlash uchun statistik usullarni ko'rib chiqadi.

Bu uslubiyotlar asosan quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- **Turizmning iqtisodiy ko'rsatkichlari:** Turizm sektorining yalpi ichki mahsulot (YIM) ga qo'shgan hissasi, turizm bilan bog'liq xizmatlar va tovarlar, shuningdek, turizmdan olinadigan soliqlar va bojlar kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.
- **Ish o'rinlari va bandlik:** Turizm sohasida yaratilgan ish o'rinlari soni va turizm sektori orqali bandlikning umumiy iqtisodiyotdagi ulushi aniqlanadi.
- **Turist oqimi va sarflar:** Turistlarning soni, ularning kelib chiqish mamlakatlari, sayohat qilish sabablari, qolish davomiyligi va turizmda sarflangan mablag'lar kabi ko'rsatkichlar statistik baholashda foydalaniladi.
- **Regional ta'sir:** Turizmning mintaqaviy iqtisodiyotlarga ta'siri, shu jumladan, mahalliy daromadlar va iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi baholanadi.
- **Turizmning ijtimoiy va madaniy ta'siri:** Turizm sektorining mahalliy madaniyat va ijtimoiy strukturalarga ta'siri, shu bilan birga, barqaror turizm tamoyillariga muvofiq tahlil qilinadi.

Bu uslubiyot orqali turizmning iqtisodiyotdagi muhim roli aniqlanadi va bu sohani yanada rivojlantirish uchun strategiyalar ishlab chiqiladi. Statistical ko'rsatkichlar va tahlillar asosida turizm sektorining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.



Turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini statistik baholashda xalqaro standartlarda qo'llanilayotgan uch usulning (to'g'ridan to'g'ri, bilvosita va multiplikativ) har biri uchun bir necha turdagi statistik usullar keng foydalaniladi.

Bizning fikrimizcha, turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini to'g'ridan to'g'ri ta'sirini baholashda eng to'g'ri statistik metod bu milliy hisoblar tizimidagi turizmning yordamchi hisobi va uning jamlanma jadvallaridir.

Turizmning bilvosita o'rnini statistik baholashda asosiy statistik usul koeffitsiyentlar usulidir. Bunda har bir sohada turizmning ulushini hisoblash va bilvosita ta'sirini o'rganish zarur bo'ladi.

Turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini multiplikativ ta'sirini statistik baholashda ko'p qo'llaniladigan metod bu ekonometrik modellashtirish bo'lib, bunda makroiqtisodiy tarmoqlar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi.

Turizmni rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashda Turizm yordamchi hisoblari (TYOH) juda muhim va asosiy manbalardan biridir. Turizm yordamchi schetlari hisobi deb ba'zi adabiyotlarda Satelistik schetlar tushuniladi. Satellite ingliz tilidan tarjima qilinganda yo'ldosh degan ma'noni bildiradi, iqtisodiyotda bu yordamchi hisoblar ma'nosida qo'llaniladi. Turizm sohasining yordamchi hisoblari orqali tahlili qilinishini asosiy sababi turizm aniq bir tarmoqda joylashmaganligidir. Turizm yordamchi hisobi jadvalar orqali turli tarmoqlardan ma'lumotlarini yig'ib keyin tahlil qiladi.

"Turizm yordamchi hisobi – 2008"da keltirilishicha, Turizm yordamchi hisobi bu tashrif buyuruvchilarning xarajatlari va iste'moli to'g'risida, shuningdek turizm sohasini makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini MHT bilan uyg'un holda shakllantirishni ifodalaydi ^[1].

Turizm yordamchi hisobi (TYOH) Milliy hisoblar tizimining muhim hisoblaridan biri bo'lib, uni O'zbekiston milliy statistika amaliyotiga to'liq joriy qilish hamda TYOH ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish iqtisodiyotimizning strategik sohasi hisoblangan turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish imkonini beradi.

Turizm ko'rsatkichlarining chop etish davomiyligi oylik, choraklik, yillik bo'lib, xalqaro standartlar talabiga ko'ra kamida har uch oyda bir marta ma'lumotlar e'lon qilinib borilishi kerak. Bu turizm statistikasi uchun eng zarur xalqaro talablardan biridir.

Statistik ma'lumotlarni to'plashda va ularni sifati va reprezentativligini oshirishda o'ta muhim hisoblanadi. Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot – bu yangi texnologiyalar, platformalar joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yanigicha tizimga ko'chirish deganidir. Respublikamizda bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat statistika agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda davlat idoralarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish, kelgusida prognozlash va davlat boshqaruvida foydalaniladigan ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beruvchi Davlat organlari ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash axborot tizimi yaratilmoqda. Bu usulni qo'llashda jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki barcha hujjatlar almashinuvi yuqori darajada avtomatlashadi va ular soni kamayadi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashadi, ma'lumotlar elektron bazalari yaratiladi, korporativ tarmoqlar hamkorligi oshadi, turistlar fikrlarini o'rganish sifati oshadi va tezlashadi.

Turizm yordamchi hisobi asosan o'nta jadvaldan iborat bo'lib, respublikada keyingi yillarda barcha jadvalar to'liq shakllantirilib, Statistika saytida berib borilmoqda.

1-jadval: Turizmning to'g'ridan to'g'ri ta'sirini hisoblashda asosiy turizm ko'rsatkichlari

No	Turizm faoliyati	Hisoblash usuli	Hisoblash davri
1.	Kirishga oid turizm iste'moli	TYOH	yillik
2.	Ichki turizmga oid xarajatlar	TYOH	yillik
3.	Chiqishga oid turizm xarajatlari	TYOH	yillik
4.	Mamlakat ichidagi turizmga oid iste'mol	so'rovnoma	yillik
5.	Turizm tarmog'ida ishlab chiqarish hisobi	TYOH	choraklik
6.	Mamlakat ichidagi to'g'ridan to'g'ri turizm taklifi	TYOH	choraklik
7.	Turizm tarmoqlaridagi bandlik	so'rovnoma	yillik
8.	Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	MHT	choraklik
9.	Jamoaviy turar joylar faoliyati	so'rovnoma	yillik
10.	Turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	MHT	choraklik

Ba'zi jadvallar hisobotlar asosida boshqalari esa so'rovnomalar bo'yicha to'ldiriladi. Har bir jadvalda xalqaro standartlar talabiga ko'ra quyidagi tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlar bo'lishi zarur.

**2-jadval: Turizm ko'rsatkichlarini asosiy tarmoqlari bilan bog'liqligi**

Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar	
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari
3.	Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari
3.1	Temir yo'lovchi transport xizmatlari
3.2	Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari
3.3	Suv yo'li transport xizmatlari
Havo yo'li yo'lovchi transporti xizmatlari	
4.	Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari
5.	Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar
5.1	Turizm agentliklari xizmatlari
5.2	Ekologik va ma'muriy xizmatlar
6.	Madaniyat sohasidagi xizmatlar
6.1	Rassomchilik xizmatlari
6.2	Muzeylar va boshqa ma'daniy xizmatlar
7.	Sport va dam olish bo'yicha xizmatlari
8.	Turizmga doir boshqa xizmatlar
8.1	Bank xizmatlari
8.2	Sug'urta xizmatlari
8.3	Pochta xizmatlari
8.4	Mahalliy korxonalarining xizmatlari
8.5	Konferensiya va ko'rgazma xizmatlari
9.	Savdo xizmatlari
Umumiy iste'mol	

BMT va UNWTO statistika standartlaridan foydalanish imkoniyati to'laroq va taqqoslash mumkin bo'lgan statistik tadqiqotlar o'tkazish, statistik bashoratlar tuzish, hududiy bo'linma miqyosida turizm yordamchi hisob ishlab chiqish imkonini beradi. Turizmning statistik vazifalarga quyidagilar kiradi:

- tashrif buyuruvchilarni statistik tahlil qilish, turistik iste'mol va joylashtirish obyektlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish;
- turizm yordamchi hisob tuzish.

Bu muammolarni samarali hal etish uchun rivojlangan turizm infratuzilmasiga ega bo'lgan mamlakatlar statistik ishlanmalarining uzoq muddatli tajribasidan va shunga mos ravishda turizm statistikasidan foydalanish juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda turizmning statistik kuzatuv o'tkazish uslubiyoti endi shakllanish bosqichida. Mintaqaviy statistikasini rivojlantirishga yangi yondashuvlar yaratilmoqda, ular yangi statistik ko'rsatkichlar va hisobot shakllarini joriy etishni o'z ichiga oladi, ammo turizmning statistik qo'llab-quvvatlashda jiddiy muammolar hali ham aniqlanmoqda, ular quyidagilar bilan bog'liq: O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, statistika tashkilotlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarayotgan paytda yuzaga keladigan statistikaning bir qator metodologik muammolari hal etilmaganligi; O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning yo'qligi; axborotning "tarqoqligi" va foydalanuvchilarning kerakli axborotni olishdagi qiyinchiliklari; statistik axborot olish va uni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etish bo'yicha qonunchilik bazasining mukammal emasligi; ijroiya hokimiyat organlarining statistik axborot resurslarini shakllantirish va ulardan axborot olishda huquq va majburiyatlarini tartibga solinmasligi.

Turizm sohasida statistika hisobi va kuzatuv masalalariga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan. Shu bilan birga, turizmning yanada rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida bashorat qilish va boshqaruv qarorlari qabul qilishda ulardan samarali foydalanish uchun ishonchli va to'liq makroiqtisodiy statistika ko'rsatkichlarini o'z vaqtida olishga imkon beradigan davlat organlari uchun axborot va statistik qo'llab-quvvatlash yagona tizimini yaratish qaratilgan bo'lishi kerak. Afsuski, bu sohadagi tadqiqotlar tarqoq, noto'liq xarakterga ega bo'lib,



O'zbekiston turizmida statistik kuzatuvni tashkil etish uchun keng qamrovli uslubiy yordam ishlab chiqishdan ancha uzoq.

Turizmni iqtisodiyotdagi o'rnini bevosita baholashda har bir makroiqtisodiy sohalar bilan korrelyatsion bog'liqligini tahlilini taklif qilamiz.

3-jadval: Turizmni iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan korrelyatsion tahlili

1	Turizmning boshqa tarmoqlar bilan bog'liqligi
2	Sanoatda turizmning ulushi
3	Qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilikda turizmning ulushi
4	Xizmat ko'rsatishda turizmning ulushi
5	Eksportda turizmning ulushi
6	Importda turizmning ulushi
7	Qurilish sohasida turizmning ulushi
8	Bank-moliya sohasida turizm ulushi
9	Raqamli iqtisodiyotda turizmning ulushi
10	Davlat xarajatlarida turizmning ulushi
11	Davlat daromadlarida turizm ulushi

Tadqiqot, asosan, turizmida statistika hisobining ilg'or xorijiy tajribasini muntazam o'rganish, statistika hisobi va statistik kuzatuv tamoyillarining zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, O'zbekiston turizmida statistik kuzatuvning samarali tizimini shakllantirish bo'yicha tashkiliy va uslubiy tavsiyalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan urinishlardan birini ifodalaydi. Ushbu muammoni hal etish O'zbekistonning alohida hududlarida ham, butun respublika miqyosida ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlariga xolisona javob beradigan turizm sohasini samarali boshqarishning istiqbolli shakl va usullarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

Shuning uchun respublikada turizm xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati katta. Chunki u an'anaviy milliy hunarmandchilik va xalq badiiy ijodi, iste'mol tovarlari va tashqi savdoni kengaytirish, bozor infratuzilmasini takomillashtirishga "zamin" yaratadi. Shu tufayli mazkur sohani jadal rivojlantirish uchun samarali rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan barcha zaif tomonlarni aniqlab, ularni bartaraf qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Turizm xizmatlar bozorida turmahsulotni samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda uning mavqei katta ahamiyatga ega. Turmahsulot mavqeiga ta'sir qiluvchi omillar esa quyidagilardan iborat: murakkab ekologik sharoitlar, siyosiy vaziyatlar, aholi o'rtasidagi tili, dini, millati bo'yicha ziddiyatlar, past darajadagi xizmat turlari, qiziq bo'lmagan me'moriy qurilishlar va boshqalar. Aytish joizki, turizm sektorida o'z ta'sirini o'tkazuvchi eng katta omil – bu turizmning mavsumiyligidir. Mavsum bo'lmagan vaqtda turizm talablarining oqimlarini tebranishini turg'un holatda saqlab qolish uchun quyidagi masalalarga alohida e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- yoshlarbop tadbirlar, rok-konsertlar, o'ziga xos festivallarni doimiy ravishda o'tkazish va ular haqida ma'lumotlarni keng tarqatish;
- mavsumga kam e'tibor beriladigan ziyorat turizmiga yanada ko'proq e'tiborni qaratish, tegishli infratuzilmalarni yaratish;
- turistik mavsum bo'lmagan paytlarda ma'lum bir sohalar bo'yicha olimlar va tadqiqotchi ekspertlar uchun ilmiy-amaliy anjumanlar, turliforumlar, madaniy tadbirlar tashkil etish;
- milliy madaniyatimizni tarannum etuvchi jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan san'atimizni, folklorini, milliy maqom va cholg'u asboblari bo'yicha maxsus ko'rik tanlovlari, tasviriy san'at ko'rgazmalari, "Navro'z" sayillari va hosil bayramlarini yanada kengroq miqyosda tashkil etish.

O'zbekiston turizm sektori barqaror rivojlanishiga erishish uchun barcha omillar tasirini inobatga olgan holda tarmoq salohiyatidan to'la foydalanib, turistik xizmatlarni ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishish zarur. Bunda jahon turizm xizmatlari bozorida raqobat kurashining avj olganligini hisobga olib, xorijiy mijozlar uchun turizm mahsulotlari jozibadorligini differentsiyalash va diversifikatsiya qilish zaruratidan kelib chiqqan holda ish ko'rishni taqozo qiladi. Chunki, turizm sektori korxonalarini yangi innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish va statistik baholash obyektiv zaruratga aylanib bormoqda.



Turizmni multiplikativ rivojlanishini aniqlashda ekonometrik model turlaridan foydalanishni taklif qilamiz. Xalqaro tadqiqotlarda eng ko'p qo'llanadigan metod ARDL modelidir.

Ko'p o'zgaruvchan vaqtli qatorlar ma'lumotlarini tahlil qilish uchun ARDL (Autoregressive distributed lag) modeliga asoslangan ekonometrik tenglamalardan foydalanildi. Tadqiqot ARDL modelidan foydalangan holda vaqtli qatorlarning grafik matritsasini qurishni o'z ichiga oldi. Bundan tashqari, bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar uchun korrelyatsiya matritsalarini baholashni, stasionarlikni tekshirish uchun Dickey-Fuller test ko'rsatkichlarini baholashni va kointegratsiya uchun Bound testini o'tkazishni o'z ichiga oldi hamda ARDL modeli regressiya tenglamasi shakllantirildi.

Bundan tashqari, ARDL modeli Cusum diagnostik testi bilan bir qatorda regressiya tenglamalari shartlarining ahamiyatini baholash uchun Gauss-Markov testi orqali tekshirildi. Ta'kidlash joizki, tenglama mustaqil o'zgaruvchilarning keyingi yildagi qaram o'zgaruvchiga kechikkan ta'sirini o'z ichiga oladi.

Avtoregressiv taqsimlangan kechikish modeli ARDL modeli o'zgaruvchilar o'rtasidagi vaqt o'rtasidagi munosabatlarni tekshirish uchun ekonometrikada keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi [2]. ARDL model tadqiqotlarda qisqa va uzoq muddatli dinamikani yoki ushbu o'zgaruvchilar orasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi [3]. Shuningdek, ARDL modeli bitta o'zgaruvchidagi o'zgarishlar nafaqat yaqin vaqt ichida, balki uzoq vaqt oralig'ida ham boshqalarga qanday ta'sir qilishini tushunish imkonini beradi. Ushbu model iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarni tekshirishda hamda o'tmishdagi davrdagi ma'lumotlarga asoslangan kelajak tendensiyalari haqida prognoz qilish uchun muhim vositaga aylantiradi [4].

ARDL modeli stasionar bo'lmagan o'zgaruvchilar bilan ishlashda va kointegratsiya tahlillarini o'tkazishda ayniqsa qimmatlidir [5]. An'anaviy regressiya modellari stasionar bo'lmagan ma'lumotlar uchun mos emas, chunki ular ishtirok etadigan o'zgaruvchilar barqaror munosabatlarga ega, deb taxmin qilinadi.

Shuningdek, ARDL modeli o'zgaruvchilar stasionar bo'lmagan xatti-harakatlarni ko'rsatadigan vaqtli qatorlarda doimiy munosabatlarni tushunishdan manfaatdor bo'lganda foydalidir. Bu uni real iqtisodiy hodisalarni hal qilish uchun ekonometrikada muhim vositaga aylantiradi.

Statistik usullardan biri bo'lgan ARDL modeli bir vaqtning o'zida bir nechta o'zgaruvchilar o'rtasidagi doimiy bog'lanishlarni tekshirish imkonini beradi.

Shuningdek, ARDL modeli vaqt qatorlari doirasida bir nechta o'zgaruvchilar o'rtasidagi doimiy munosabatlarni tekshirishni osonlashtiradi. Ushbu model ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilar o'rtasidagi uzoq muddatli kuzatuvlarni tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligi va vaqt o'tishi bilan dinamikasini aniqlash imkonini beradi [6].

ARDL modelida qaram o'zgaruvchi o'zining kechikkan qiymatlari, shuningdek, mustaqil o'zgaruvchilarning kechikkan qiymatlari bo'yicha regressiyalanadi [7]. Bu tushuntirish o'zgaruvchilarning javob o'zgaruvchisiga ham bir vaqtda, ham kechiktirilgan ta'sirini tekshirish imkonini beradi. Kechiktirilgan effektlarni kiritish, ayniqsa, vaqt o'tishi bilan kechiktirilgan yoki to'plangan ta'sirlarni qo'lga kiritish uchun foydalidir.

Taniqli iqtisodchi olim, Narayan Paresh Kumar ARDL modelini ko'plab iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llagan. Turizm, valyuta kurslari va iqtisodiy o'sish kabi mavzularda empirik tadqiqotlarni o'z ichiga olgan hamda kointegratsiya va birlik ildizi testi bo'yicha tadqiqotlari orqali muhim natijalarga erishgan.

Horijlik iqtisodchi olim Mohsen Bahmani-Oskooee turizm, valyuta kursi dinamikasi va uning eksport oqimlariga ta'siri sohasidagi tadqiqotlarida ARDL modelini qo'llagan. Tadqiqotlar natijalaiga ko'ra valyuta kurslari, eksport va turli iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ekonometrik modellarning ishonchlilik darajasi o'z aksini topgan.

Avtoregressiv taqsimlangan kechikish (ARDL) modeli uchun quyidagi formula ifodalandi.

$$Y = \alpha_0 + \alpha_1 Y_{t-1} + \alpha_2 Y_{t-2} + \dots + \alpha_p Y_{t-p} + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \dots + \beta_q X_{t-q} + \gamma_1 Z_{t-1} + \gamma_2 Z_{t-2} + \dots + \gamma_r Z_{t-r} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda,

Y_t – t vaqtidagi natijaviy omillarni ifodalaydi.

$Y_{t-1}, Y_{t-2}, \dots, Y_{t-p}$ - omil belgilarning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi..

$X_{t-k}, X_{t-k-1}, \dots, X_{t-k-q}$ – omil belgilarning ning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi, $Z_{t-1}, Z_{t-2}, \dots, Z_{t-r}$ natijaviy omillarga ta'sir etuvchi boshqa omillarning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi.

$\alpha_0, \alpha_1, \dots, \alpha_p, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_q, \gamma_1, \gamma_2, \dots, \gamma_r$ baholanadigan koeffitsiyentlar ifodalaydi, ε_t t vaqtidagi xatolikni ifodalaydi..

Tadqiqot bo'yicha ekonometrik modelni shakllantirishda quyidagi gipoteza ilgari surildi.

Jahon turizm tashkiloti tavsiyalariga ko'ra turizmni iqtisodiyotdagi o'rni uch xil talqin qilinadi. Bular turizmning iqtisodiyotdagi to'g'ridan to'g'ri o'rniga egaligi, bilvosta ta'siri asosidagi o'rni, multiplikativ ta'siri asosidagi o'rni va umumiy o'rni.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda turizmning iqtisodiyotdagi to'g'ridan to'g'ri o'rnini hisoblash uchun turizm yordamchi hisobi ishlab chiqilgan hamda hozirda amaliyotga keng qo'llanilmoqda. Lekin turizmni bilvosita va multiplikativ ta'siri aniqlash uchun tafsiyaviy standart hozircha mavjud emas, ayrim davlatlar o'zlari metodologiyasi bo'yicha turizmni bilvosita va multiplikativ hisobini yuritadilar.

Turizm sababli aeroportlar yoki vokzallar ta'mirlanadi yoki quriladi, transportlar tezligi va ifratuzilmasi takomillashtiriladi, yo'llar va ularning atrofi yaxshilanadi, turizm obyektlarning atrofidagi ekologik holat va ularga tutush infratuzilma ko'proq daromad oladi.

Turizm yordamchi hisobi (TYOH) Milliy hisoblar tizimining muhim hisoblaridan biri bo'lib, uni O'zbekiston milliy statistika amaliyotiga to'liq joriy qilish hamda TYOH ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish iqtisodiyotimizning strategik sohasi hisoblangan turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish imkonini beradi.

Turizmni iqtisodiyotdagi o'rnini bevosita baholashda har bir makroiqtisodiy sohalar bilan korrelyatsion bog'liqligini tahlilini taklif qilamiz.

Turizmni multiplikativ rivojlanishini aniqlashda ekonometrik model turlaridan foydalanishni taklif qilamiz. Xalqaro tadqiqotlarda eng ko'p qo'llanadigan metod ARDL modelidir.

Turizm statistikasini hisobini olib borish bo'yicha, xalqaro tajribalar turlicha va ko'plab standartlar mavjud. Ular tavsiya xarakteriga ega. Lekin, ushbu tavsiyalar ko'pchilik davlatlarda milliy xususiyatlarni hisobga olmagan holda qo'llanilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вспомогательный счет туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008 год, ИСБН 098-92-1461023-6, -Ню Ёрк, БМТ, БТТ, Евростат. 2010. Ст.10
2. Nkoro, Emeka, and Aham Kelvin Uko. "Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation." *Journal of Statistical and Econometric methods* 5.4 (2016): 63-91.
3. Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. "Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach." *The Pakistan Development Review* (2008): 501-513.
4. Rahman, Preethu, Zhihe Zhang, and Mohammad Musa. "Do technological innovation, foreign investment, trade and human capital have a symmetric effect on economic growth? Novel dynamic ARDL simulation study on Bangladesh." *Economic Change and Restructuring* 56.2 (2023): 1327-1366.
5. Ghouse, Ghulam, Saud Ahmed Khan, and Atiq Ur Rehman. "ARDL model as a remedy for spurious regression: problems, performance and prospectus." (2018): 1-29.
6. Agovino M., Bartoletto S., Garofalo A. A long-term analysis of efficiency in the Italian banking system from 1861 to 2010 // *Structural Change and Economic Dynamics*. – 2022. – T. 61. – S. 227-241.
7. Eren M. Fuzzy autoregressive distributed lag model-based forecasting // *Fuzzy Sets and Systems*. – 2023. – T. 459. – S. 82-94.
8. Khujamurodov, A., & Jumanova, Z. (2020). Methodological Aspects of the Bank's Information Security. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN, 2249(0892).
9. Khujamurodov, A. J., Djalilov, F. A., Khamzaev, A. N., & Umarmujayev, A. M. (2023). Improving the infrastructure of the stock market in the context of economic modernization. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 03054). EDP Sciences.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

